INKLYUZIV TA’LIMDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY SUBYEKTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Turg‘unboyeva Nasiba Rustam qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23512834

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy subyektligini rivojlantirishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslanib, mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida raqamli resurslarning bolalarda mustaqil tanlov qilish, ijodiy tashabbus ko‘rsatish, o‘z g‘oyalarini ifodalash va faoliyat jarayonida mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, makatabgacha yoshdagi bolalar, ijodiy subyektligini rivojlantirish, raqamli ta’lim resurslari.*
Аннотация. *В данной статье теоретически обоснованы педагогические возможности использования цифровых образовательных ресурсов в развитии творческой субъектности детей дошкольного возраста в условиях инклюзивного образования. На основе анализа отечественных и зарубежных научных исследований раскрыта роль цифровых ресурсов в развитии у детей навыков самостоятельного выбора, проявления творческой инициативы, выражения собственных идей и принятия самостоятельных решений в процессе деятельности.*
Ключевые слова: *инклюзивное образование, дети дошкольного возраста, развитие творческой субъектности, цифровые образовательные ресурсы.*
Abstract. *This article theoretically substantiates the pedagogical potential of using digital educational resources to develop the creative agency of preschool-aged children in inclusive education. Based on an analysis of local and international scientific research, it highlights the role of digital resources in developing children’s skills in making independent choices, demonstrating creative initiative, expressing their own ideas, and making independent decisions during activities.*
Keywords: *inclusive education, preschool-aged children, development of creative agency, digital educational resources.*

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida har bir bolaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv maktabgacha ta’lim sharoitida bolalarning teng ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikrlashi, tashabbus ko‘rsatishi va ijodiy faoliyatga jalb etilishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tarbiya tizimini takomillashtirish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron ta’lim resurslarini joriy etish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan.[1].

Maktabgacha yosh shaxsning ijtimoiy-psixologik asoslari shakllanadigan eng sezgir davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada tashbbus, mustaqil tanlov qilish, o‘z faoliyatini yo‘naltirish va noyob natija yaratish kabi sifatlarni o‘z ichiga olgan ijodiy subyektlik rivojlana boshlaydi. Inklyuziv guruhlarda esa bu jarayon alohida e’tibor talab qiladi, chunki alohida ta’lim ehtiyojiga ega bola ko‘pincha faol ishtirokchi emas, balki yordam oluvchi sifatida qaraladi.

Raqamli ta’lim resurslari (interaktiv o‘yinlar, multimedia, ta’limiy ilovalar) esa topshiriqni bolaning idrok xususiyatlari va tezligiga moslashtirish, axborotni ko‘rish, eshitish va harakat orqali qabul qilishni ta’minlash hamda bolaga tanlov erkinligini berish imkonini yaratadi.

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning aksariyati raqamli vositalarning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdagi samaradorligiga qaratilgan. Ularning maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy subyektlikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari esa ilmiy jihatdan yetarli yoritilmagan. Amaliyotda raqamli vositalar ko‘pincha ko‘rgazmali material sifatida qo‘llanilib, ularning didaktik salohiyatidan to‘liq foydalanilmayapti. Tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasi hamda inklyuziv guruhlar uchun maxsus metodik tavsiyalar yetishmasligi ham muammoni kuchaytirmoqda. Bu esa mavzuning dolzarbligini va uni ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish zarurligini belgilaydi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy subyektligini rivojlantirishda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini asoslashdan iborat.

Maktabgacha yosh davri bolaning atrif-muhitni faol o‘rganish, yangi g’oyalarni ilgari surishi, turli faoliyat turlarini sinab ko‘rishi va oz qiziqishlarini namoyon etishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, bolalarning ijodiy subyektivligini rivojlantirish ularni tayyor topshiriqlarni bajaruvchi ishtirokchi sifatida taklif etishga qodir shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Inklyuziv ta’limda bu jarayon har bir bolaning individual xususiyatlari va inkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Inklyuziv maktabgacha ta’limda bolalarning ijodiy subyektligini rivojlantirish raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning pedagogik maqsadini to‘g‘ri belgilashni talab qiladi. Bunda asosiy vazifa bolani raqamli qurilma bilan band qilish emas, balki uning mustaqil tanlov qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi, o‘z faoliyatini boshqarishi va ijodiy natijaga erishishida raqamli vositalardan foydalanishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, raqamli resurslarning samarasi ularning texnik imkoniyatlaridan tashqari, pedagog tomonidan qanday maqsadda tanlanishi va bolaga qanday faoliyat imkoniyatlari yaratilishiga ham bog‘liq.

P. Xayriddinovaning “Raqamli ta’lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri” maqolasida raqamli ta’lim muhitining bolalarning kognitiv

rivojlanishi, ijodkorligi, fantaziyasi va ta’limga qiziqishi bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan. Raqamli ta’lim muhitini bolalarning ijodiy rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘rganish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Biroq ijodiy subyektlik faqat ijodkorlik yoki fantaziyaning rivojlanishi bilan cheklanmaydi.[5].U bolaning mustaqil tanlov qilishi, faoliyatni boshlashi, o‘z qarorlarini amalga oshirishi va natijaga ta’sir ko‘rsatishida ham namoyon bo‘ladi.

K. Fielding va K. Murcia tomonidan 2026-yilda kichik yoshdagi bolalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda ularning ijodiy faolligini qanday namoyon bo‘lishini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagog ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni puxta tashkil etganda bolalar o‘z g‘oyalarini ifodalash va mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aksincha, texnologiyaning imkoniyatlari yoki topshiriq doirasi haddan tashqari cheklanganida ijodiy faollik ham cheklanishi mumkin.[2].Raqamli topshiriqlarni bolaga tayyor yechimni takrorlatish asosida emas, balki mustaqil tanlov, tajriba va ijodiy izlanishga imkon beradigan tarzda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

K.-S. Tang va hammualliflar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli kodlash qurilmalari yordamida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotda bolalarning ijodiy faoliyati nutqiy ifodalar, raqamli qurilmalarni boshqarish va atrofdagi jismoniy makonni anglash orqali namoyon bo‘lishi aniqlangan [4]. Ushbu natijalar raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda bolalarning faqat yakuniy faoliyat natijasini emas, balki mustaqil izlanishi, turli usullarni sinab ko‘rishi va o‘z g‘oyalarini ifodalash hamda zarurligini ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bu masala yanada muhim, chunki bolalarning topshiriqni bajarish usullari, muloqot imkoniyatlari va faoliyat sur’atlari bir-biridan farq qilishi mumkin. D. G‘ulomovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotida inklyuziv ta’limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar” maqolasida raqamli ta’lim vositalari, interaktiv metodlar, differensial yondashuv va kooperativ o‘qitishning inklyuziv muhitdagi o‘rni yoritilgan.[3].Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, raqamli resurslarni tanlashda bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, topshiriqlarni turli usullarda bajarish imkonini yaratish va bolalar o‘rtasidagi hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Z. X. Xusnuddinovaning ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan ishida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun texnologik vositalardan foydalanish masalalari va individual yondashuv zarurati ko‘rib chiqilgan.[6].Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy subyektligini o‘rganishga qaratilmagan bo‘lsa-da, raqamli resurslarni bolaning imkoniyatlariga moslashtirish masalasini yoritishi bilan ahamiyatlidir.

Mavzuga oid tadqiqotlar tahlili inklyuziv maktabgacha ta’lim amaliyotida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan bir nechta muammoni ko‘rsatadi. Birinchidan,

raqamli resurslardan foydalanishda bolaning mustaqil tanlovi va tashabbusidan ko‘ra, topshiriqni to‘g‘ri bajarish natijasiga ustuvorlik berilishi mumkin. Ikkinchidan, barcha bolalarga bir xil topshiriq va foydalanish usulini taklif etish ayrim bolalarning faol ishtirokini cheklashi ehtimoli mavjud. Uchinchidan, raqamli mashg‘ulotlar bolalarning bevosita muloqoti, amaliy o‘yini va ijodiy faoliyati bilan yetarlicha uyg‘unlashtirilmasa, ularning mustaqil harakat qilish imkoniyatlari kamayishi mumkin. Ushbu holatlar mazkur mavzu doirasida e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan pedagogik muammolar bo‘lib, ularning tarqalish darajasi alohida empirik tadqiqot orqali aniqlanishi lozim.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, raqamli resurslardan foydalanish maqsadini bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish bilan bog‘lash zarur. Masalan, raqamli rasm chizish dasturida bola rang va shakllarni mustaqil tanlashi, elektron hikoya yaratishda voqealar ketma-ketligini belgilashi, interaktiv konstruktor orqali esa o‘z loyihasini ishlab chiqishi mumkin. Bunday topshiriqlarda yagona tayyor natijani talab qilish o‘rniga, bolaga bir necha yechimni sinab ko‘rish, o‘z tanlovini ifodalash va faoliyatini o‘zgartirish imkoniyati beriladi.

Raqamli resurslarni moslashtirishda bolaning individual ehtiyojlari ham hisobga olinishi kerak. Masalan, og‘zaki nutq orqali fikr bildirishda qiynaladigan bola o‘z g‘oyasini rasm, belgi yoki audioyozuv yordamida ifodalashi mumkin. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun esa foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi maxsus sozlamalar va moslashtirilgan vositalar tanlanishi lozim. Bunda tarbiyachi zarur yordamni ko‘rsatishi, biroq bolaning o‘rniga tanlov qilmasligi va uning mustaqil urinishlarini cheklamasligi muhim.

Yuqoridagi tahlil asosida inklyuziv maktabgacha ta’limda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Resurslarni individual ehtiyojlarga mos tanlash. Raqamli vositaning qulayligi, bolaning yoshi, qiziqishi va rivojlanish xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Mustaqil tanlovni rag‘batlantirish. Bolaga topshiriqni bajarish usuli, tasvir, rang, shakl yoki ijodiy yechimni tanlash imkoniyati berilishi kerak.

Ijodiy topshiriqlarni ko‘paytirish. Raqamli faoliyat tayyor javobni takrorlashdan ko‘ra, yangi g‘oya yaratish, tajriba o‘tkazish va muammoni turli yo‘llar bilan hal qilishga yo‘naltirilishi zarur.

Raqamli va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirish. Elektron hikoya, rasm yoki konstruktor bilan ishlash bevosita o‘yin, muloqot va qo‘l mehnati bilan davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Ijodiy subyektlikni jarayon asosida baholash. Bolaning mustaqil tashabbusi, tanlov qilishi, g‘oyasini ifodalashi va faoliyatdagi ishtiroki kuzatib borilishi lozim.

Shunday qilib, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish inklyuziv maktabgacha ta’limda bolalarning ijodiy subyektligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Buning uchun raqamli vositalar bolaning individual ehtiyojlariga mos tanlanishi, mustaqil qaror qabul qilishini rag‘batlantirishi va amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Taklif etilgan tavsiyalarni maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etish hamda ularning samaradorligini kuzatish kelgusida mazkur yo‘nalish bo‘yicha tajriba-sinov tadqiqotlarini tashkil etish uchun asos bo‘la oladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv maktabgacha ta’limda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish bolalarning ijodiy subyektligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu imkoniyatlar bolalarning mustaqil tanlov qilishi, o‘z g‘oyalarini ifodalashi, ijodiy yechimlarni izlab topishi va ta’lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Buning uchun raqamli resurslarni bolalarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos tanlash, ijodiy tashabbusni rag‘batlantirish hamda raqamli mashg‘ulotlarni amaliy o‘yin va bevosita muloqot bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Shuningdek, tarbiyachilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, inklyuziv guruhlar uchun moslashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va bolalarning ijodiy faoliyatini jarayon asosida baholashga e’tibor qaratish lozim. Demak, raqamli ta’lim resurslaridan maqsadli va individual yondashuv asosida foydalanish har bir bolaning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishi uchun sharoit yaratadi. Kelgusida ushbu yondashuvlarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali o‘rganish mavzuning amaliy ahamiyatini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori. *Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. – URL: https://www.lex.uz/uz/acts/-5044711
2. Fielding, K., Murcia, K. Making choices and having a go: facilitating young children’s creative agency with digital technologies *The Australian Educational Researcher*.- 2026.- Vol. 53. – Article 47.
3. G‘ulomova, D. Maktabgacha ta’lim tashkilotida inklyuziv ta’limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar // *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*. – 2026. – Vol. 4.
4. Tang, K.-S., Murcia, K.Brown, J.Cross, E. Mennell, S.Seitz, J. Phillips, S.Sabatino, D. Exploring the multimodal affordances of digital coding devices in fostering creative thinking in early childhood education *Thinking Skills and Creativity*.2024. Vol. 53. Article 101602.
5. Xayriddinova, P. Raqamli ta’lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta’siri *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*. 2026. Vol. 4.
6. Xusnuddinova, Z. X. Inklyuziv ta’lim sharoitida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy yondashuv. 2024.-B. 304–309.